



# O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN  
ANJUMAN MATERIALLARI



2024-yil 16-aprel

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA  
AMALIYOTI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI**

**2024-yil 16-aprel**

**Toshkent – 2024**

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldaggi PQ-200 qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risi”dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug‘iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida “O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o‘tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o‘zbek tilining xorijiy til sifatida o‘qitishda qo‘llanayotgan va foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha o‘zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO‘TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o‘rin olgan.

To‘plam til va adabiyot ta‘limi bilan shug‘ullanuvchi professor-o‘qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo‘ljallangan.

### **Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

### **Tahrir hay’ati:**

S.Muhamedova, N. Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y. Shirinova,  
O. Turakulova, D. Elova, G. Iskandarova, Y. Do‘smurodova.

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrnga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.

Shuningdek, materialda o‘quv mashg‘ulotlarida foydalaniladigan barcha terminlarni o‘z ichiga olgan glossariy ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, mazkur loyiha ishini amalga oshirish davomida turli oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan sifatli metodik material yaratildi. Ushbu faoliyat turi ustida ishlash jarayonida bo‘lajak magistrlar turli yo‘nalishlar uchun mutaxassislik tili bo‘yicha metodik ta’midot bilan ishslash ko‘nikmalariga hamda o‘quv qo‘llanmalari va terminologik lug‘atlarni tuzish tajribiga ega bo‘ldilar. Erishilgan natijalar nafaqat magistrantlarning bo‘lg‘usi ilmiy-metodik faoliyati, balki nofilologik oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Вербицкий А.А., Григоренко О.А. Контекстное обучение иностранному языку специальности: Учебно-методическое пособие. – М.: РИЦ МГГУ им. М.А. Шолохова, 2015. – 205 с.
2. Жукова Г.С., Никитина Н.И., Комарова Е.В. Технологии профессионально-ориентированного обучения. Учебное пособие. – М.: Изд-во РГСУ, 2012. – 165 с.

## **MUOMALA ODOBIGA OID VAZIYATLAR VA QOLIP GAPLARNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI**

*Gulnoza Axmedova*

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori,  
ped.fan.dok-ri (DSc), dotsent*

Rusiyabon o‘quvchilarning dialogik nutqini o‘sirish uchun lingvistik asos vazifasini o‘taydigan qolip gaplarni ajratish masalalarini hal etish ta’lim tizimida bugun ayniqsa muhim. Ilmiy izlanishimizda “O‘zbek tili” darsliklari tahlilidan ularning oz miqdorda berilgani ma’lum bo‘lgan edi. Tilimizda bunday gaplarning ko‘pligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

O‘qituvchining qo‘lida qolip gaplar (50 dan ortiq) ro‘yxati mavjud bo‘lsa, ta’limiy tadbirlarni rejalashtirish mazmunli tashkil etilishi aniq. Shunday ekan, ushbu mavzular doirasini belgilab olish, qolip gaplarni guruhash, ayrim muomala odobi qoidalarini ko‘rsatish darkor.

N.I.Formanova, X.R.Sokolovalarning “Речевой этикет: Русско-немецкие соответствия” nomli ma’lumotnomaga kitobida quyidagi muloqot tushunchalariga izoh beriladi, ularning dialogik nutqda qo‘llanish xususiyatlari bayon qilinadi: “sen” va “siz” kabi muomala odobi shakllari misollar asosida yoritiladi: *diqqatni jalb etish, e’tiborni qaratish* (*o‘zi bermoqchi bo‘lgan savolga e’tiborni qaratish*), *notanish shaxsga murojaat qilish* (*ayniqsa, biror ish bilan band bo‘lgan yoki telefon orqali gaplashayotgan kishilarga*) *o‘ta yumshoqlik bilan murojaat qilish, harbiylarning bir-biriga murojaat qilishlari*), *tanishuv* (*odatdagi norasmiy tanishuv, rasmiy-idoraviy tanishuv*), *salomlashish* (*odatdagi salomlashish, ko‘tarinki ruhdagi salomlashish, ham*

*salomlashish, ham taklif qilish, salomlashish va hol-ahvol so'rash), xayrlashish, tabriklash, istak bildirish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so'rash, iltimos, rozilik bildirish, ruxsat berish, rad etish, man etish, taklif qilish, maslahat, taklif berish, maqtov so'z aytish (kompliment), ma'qullash, telefon orqali so'zlashuv, yuqoridagilarga javob replikalari va boshqalar [1].*

Nutqiy muloqot madaniyati muomala odobiga rioya qilib, so'zlash ohangining suhbatdoshta ma'qul tarzda bo'lishiga intilishda o'z ifodasini topadi. Gapirishda odob va odobsizlik muomala tavsifiga bog'liq. Masalan, ikki kishi gaplashib turganda uchinchi kishi so'zlayotgan kishining gapini bo'lib suhbatga aralashishi madaniyatsizlik (odobsizlik) belgisi sanaladi. Afsuski, bunday holatlar nufuzli yig'ilishlarda ham kuzatilishi mumkin.

Yana bir ibratli misol. Telefon jiringlaydi. Fikringiz bo'linib, go'shakni ko'tarasiz. Qandaydir begona ovoz salomsiz, aliksiz:

– Kim bu? – deydi.

O'zini tanishtirmasdan nogahon sizni so'rovga tutayotgan bu kimsaga nima deyishingizni bilmay qolasiz. Har holda birdaniga unga tanbeh berishni, qo'ng'iroq qilayotgan odam avval o'zini tanishtirib, muddaosini muomala madaniyati bilan izhor etishi lozimligini pesh qilishni o'zingizga ep ko'rmaysiz [2;15-b.].

Muomala odobiga rioya etish masalalari Siddiq Mo'minning "So'zlashish san'ati" risolasida [2] ma'lum darajada yoritilgan. Ushbu risolada "Tinglashni o'rganish", "Yaxshi so'z – muxtasar", "Suhbatga tayyormisiz?", "Kim bilan gaplashyapsiz?", "Mening muhtaram o'zim...", "So'z salomdan boshlanur...", "Birini aka dedim, birini o'rtoq...", "Sen deyinmu, siz deyin?", "Eng yaxshi dori", "Sotuvchining sehrli so'zi", "Qani, meni bir maqtang!...", "Indamasdan indashni bilasizmi?", "So'zlama pardoz bilan...", "Senga tuhmat qilsalar agar...", "Boshqacha qilib aytинг", "Chiroyingiz ochiq bo'lsin", "Hayo ko'zdan bilinur", "Tabassumni darig' tutmang", "Angla talaffuz qadrini", "Yoqimli va yoqimsiz ovozning inson miyasiga ta'siri", "Otang seni sotganda ham...", "Darvozamiz ochiq bo'lsin", "Siz ham bolalarni qadrlang ko'proq...", "Qizim, senga aytaman..." mavzulari doirasida ibratomuz maslahatlar bergen holda so'z yuritilgan.

Siddiq Mo'min ayol va erkaklar nutqidagi farqqa e'tiborni qaratadi: "Ayollar nutqi erkaklar nutqidan har jihatdan: tovushlar ifodasi, lug'at tarkibi, gap qurilishi kabi tomonlardan sezilarli darajada farqlanib turadi. Erkaklar nutqi ham qisqa va lo'ndaligi, bosiq va qat'iy ohangda aytishi va boshqa juda ko'p jihatlari bilan ayollar nutqidan farqlanadi" [2;16-b.].

Muallifning suhbatni salom-alikdan boshlash ham nutq madaniyati ekanligi, suhbatdoshta nima deb (ey, dono; ey, gado...) javobga ta'sir qilishi, so'zlovchi o'z so'ziga ham pardoz berishi kerakligi, sotuvchining o'zi sotayotgan narsasini qimmat demasdan, arzon emas degan yaxshi ekanligi, so'zlovchining yuzida muloyimlik sezilib turishi zarurligi, ko'zidan hayo ifodasi bilinib turishi lozimligi kabi maslahatlari ham muomala odobi qoidalari uchun asos bo'lishi mumkin. Uning fikricha, "Ohang – so'z va gapning libosi bo'lib, bu til va nutq birliklari qanday ifoda etilishiga ko'ra, uning ma'nolari ham o'zgarib turadi". Demak, dialogik nutq o'stirishda so'zlash ohangi ham ta'lim birligi sanalishi lozim.

A.A.Pozdnyakova so‘zni, ayniqsa, qolip gapni bilib, farqlab ishlatish kerak, deb maslahat beradi. Uning fikricha, bemordan uning kasalligi haqida so‘rashdan ko‘ra, “Sog‘liqlaringiz yaxshimi?” deb so‘ragan ma’qul. Ushbu qolip gap bilan hatto tuzalishi dargumon bo‘lgan bemorda ham sog‘ayishga bo‘lgan umid tug‘diramiz.

Muallif o‘zi o‘tkazgan suhbatlardan shuni aniqlaganki, salbiy tuyg‘u uyg‘otadigan so‘zlar aksar holatlarda quyidagicha bo‘ladi: a) o‘lim nomi, b) kasallik nomi, v) ijtimoiy isnod (qamoq va h.k.), insoniy g‘am-g‘ussalarning turli nomlari va b.) so‘kish so‘zлari [3; 34-b.].

Suhbatga qo‘shilish (gapisht)ga ruxsat (ijozat) so‘rash murojaat replikalaridan foydalanish orqali amalgalash oshiriladi. Ikki kishi orasida bo‘lib o‘tayotgan suhbatga uchinchi kishining odob bilan aralashishi uchun u tegishli replikalarni qulay vaziyat topib ishlatishi, bunda quyidagilarga rioya etishi zarur:

- 1) suhbatdoshlardan birining gapdan to‘xtashini kutish;
- 2) quyidagi kabi replikalar bilan suhbatlashayotganlarga murojaat qilish:
  - *Kechirasizlar, bir narsa so‘rasam bo‘ladimi?*
  - *Men ham gapirsam bo‘ladimi?*
  - *Men ham o‘z fikrlarimni bildirsam bo‘ladimi?*

Muomala odobiga ko‘ra suhbat davrsi kengaygandan keyin har bir ishtirokchi navbat bilan gapishtishi kerakligi o‘quvchilarga beriladigan qoidalar sirasiga kiradi.

M.S.Balabayko so‘zlashuvga undash mazmunidagi dialogik replikalarni, shular sirasida qolip gaplarni ikki turga bo‘ladi: [4] 1) informativ (axborot berishga undovchi) replikalar; 2) ish-harakatga (so‘zlashga) undovchi replikalar. M.S.Balabaykoning yoyiq holda bergen tasnifini quyidagicha umumlashtirib ko‘rsatish mumkin:

Informativ replikalar:

- 1) voqeа-hodisa yoki biror xatti-harakat haqidagi xabar;
- 2) narsa-buyumlarni tasvirlash;
- 3) faktlarga o‘z munosabatini bildirish;
- 4) his-tuyg‘ularini ifodalash.

So‘zlashga undovchi replikalar:

- 1) ish-harakatga undash;
- 2) ish-harakatni to‘xtatish yoki uning oldini olishga intilishni ifodalash;
- 3) axborot berishga undash.

Beriladigan xabar quyidagi javob replikalarini keltirib chiqaradi: 1) tasdiq, 2) niyatni ma’qullah, 3) to‘ldirish, 4) xulosa qilish (yakunlash).

Taklifga nisbatan yuzaga keladigan javob replikalari: 1) rad etish, 2) tuzatib qo‘yish, 3) takliflarga qo‘silmashlik, 4) mumkin emaslikni isbotlash.

Olingan xabar munosabati bilan shaxsiy munosabatini ifodalash: 1) minnatdorchilik, 2) hayrat, 3) quvonch, 4) yaxshi ko‘rganlik, 5) qanoatlanish, 6) faxrlanish, 7) loqaydlik, 8) hayron bo‘lish, 9) afsus, 10) norozilik, 11) g‘azab, 12) qo‘rquv, 13) nafrat, 14) jahl qilish.

Ish-harakatga undash: 1) iltimos, 2) maslahat, 3) taklif, 4) talab, 5) olingan axborot bilan bog‘liq ish-harakatga ruxsat berish.

Olingen axborot bilan bog‘liq ish-harakatni to‘xtatish yoki uning oldini olishga intilishni ifodalash: 1) ta’qiqlash, 2) biror narsadan ogoh qilish, 3) ijozat bermaslik, 4) dakki berish [32].

Bularni umumlashtiradigan bo‘lsak, javob replikalari quyidagilardan iborat: tasdiqlash, ruxsat berish, rad etish, man etish, berilgan xabarni to‘ldirish, unga qo‘sishma qilish, suhbatdoshining fikriga munosabat bildirish: ma’qullah, maqtash, olqish so‘zlar aytish, xulosa qilish, minnatdorchilik, hayrat, quvonch, yaxshi ko‘rganlik, qanoatlanish, faxrlanish, loqaydlik, hayron bo‘lish, afsus, norozilik, g‘azab, qo‘rquv, nafrat, jahl qilish, tuzatib qo‘yish, takliflarga qo‘silmashlik, mumkin emaslikni isbotlash, talab, ta’qiqlash, biror narsadan ogoh qilish, ijozat bermaslik, dakki berish.

Ikki kishi o‘rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e’tiroz kabi mazmunlarda bo‘lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko‘p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo‘lmay, o‘rtaga tashlangan savol, taklif, da’vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi. [4; 65-b.].

N.I.Formanovskaya, X.R.Sokolovalar dialogik replikalarni rus va nemis tillari, M.S.Balabayko rus tili nuqtai nazaridan tasnif qilishadi, misollarni shu tillardan keltirishadi. Biz behisob dialogik replikalarni qo‘shamagan holda, faqat qolip gaplar, shablon so‘z va iboralarni ko‘zda tutgan, shuningdek, “O‘zbek tili” darsliklaridagi tasniflarni hisobga olgan, ularning mundarijasini kengaytirgan holda sharqona misollar asosida bir qadar ko‘proq to‘plashga harakat qilamiz. Bunda so‘zlashuv nutqini kuzatish, badiiy asarlardagi dialogik parchalarni o‘rganish, faolroq qolip gaplarni tanlash yo‘lidan boramiz. Har bir tasnifiy guruhda avval suhbatdoshlardan birining ikkinchisiga qolip gaplardan foydalanib aytadigan replikasi, so‘ng uning davomida faqat suhbatdoshining replikasidan mazmunan va struktura jihatdan farqli javob replikasini keltiramiz.

**Diqqatni jalb etish:** *Sizni (seni) bir daqiqaga mumkinmi? Qulog‘im sizda! Endi sizdan eshitsak. Qarang... Xo‘sh, qulog‘im sizda. Gapimga quloq sol. Yaxshilab eshit. O‘zingizda gapim bor. So‘rasam maylimi? Eshit(ing)! Savol bersam bo‘ladimi? Ruxsat bersangiz, sizga savolim bor edi. Murojaat etishga ruxsat bering!*

**Salomlashish:** *Assalomu alaykum. Vaalaykum assalom. Salom. Salom sizga! Yaxshimisz? Siz bilan salomlashay!* (ruxsat eting, xursandman).

Salomlashish – bu uchrashgan tanish va notanish kishilarga hurmat, xayrixohlik, muomaladagi muloyimlik belgisidir. Agar masalan, biz biror muassasaga kirishda rasmiy vakilga salom beramiz. Odatda, bularning barchasi “Kechirasiz”, “Uzr” so‘zlar bilan birga ishlatalidi.

**Tanishish:** *Oting nima? (Sening oting nima? Sening isming nima?) Familyang nima? Sen necha yoshdasan? (Yoshing nechada?) Tanishganimizdan xursandman. Sening /Sizing/ familiyang /iz/ nima? Siz kim bo‘lasiz? Men ...ning qizlariman. Men o‘g‘illari ...man. Siz ...amakimisz? Men siz (sen) bilan tanishmoqchiman. Kel(ing), tinishaylik! (tanishamiz)! O‘zimni tanishtirishga ruxsat (ijozat) bering (eting)!*

**Hol-ahvol so‘rash:** *Sog‘liqlaring yaxshimi? Yaxshi, rahmat. O‘zingning sog‘liqlaring qalay? Sog‘-salomatmisan? Tuzukmisan? O‘qishlaring qalay?*

*O'qishlaring yaxshimi? O'zingniki-chi? Ishlar qalay? Yaxshi. (Zo'r. Mixday.) Otang /Onang/ yaxshi yuribdimi? Otang /Onang/ning sog'liqlari yaxshimi? Shukr, rahmat. Yaxshi yuribsanmi? Oying va dadang yaxshimilar? Yaxshi yuribsan /siz/mi? Ahvollaring/iz/ qalay? Sog'-salomatmisan/siz/? Ishlaring/iz/, o'qishlaring/iz/ yaxshimi? Uydagilar yaxshimi /eson-omonmi/? Nima yangiliklar bor? Onang/iz/, otang/iz/ .... yaxshi yuribdimi? Yomon emas. Xudoga shukur, yaxshi. Juda soz! Tashakkur, o'zing/iz/-chi? Bir navi. So'ramang, yaxshi emas. ...., qalaysan? O'zing qalaysan? Xafa ko'rinasan. Voy, yana nima bo'ldi! O'zingizdan so'rasak. O'rtacha, hammasi yaxshi, hammasi joyida, menda yomon emas (hammadan zo'r (yaxshi). Siz (sen) o'zingni qanday his qilyapsan? Siz qanday yashayapsiz? Sizga (senga) nima bo'ldi? Ha, nima bo'ldi endi?*

**Xayrlashish:** *Xayr. Ko'rishguncha. Yaxshi qol! Xayr! Xo'p, xayr! Omon bo'ling! Ko'rishguncha xayr!*

**Istak bildirish:** *Sog' bo'ling. Hormang! Bor bo'ling! Yaxshi boring! YAxshi qoling! Sizga omad tilayman! Yaxshi borib keling! Oq yo'l! Omadingiz kelsin! Yaxshi yotib turing! Xayrli tun! Ishingiz o'ngidan kelsin! Sizga omad yor bo'lsin! Muvaffaqiyat tilayman! Chin dildan ... tilayman! Eng yaxshi tilaklarimni qabul eting! .... aytganingiz kelsin! Minnatdorman, qachon kerak bo'lsam, xizmatlaringizga tayyorman. Ishqilib, umri uzoq bo'lsin! Omin, oxiri baxayr bo'lsin. Sizga o'xshab yursin. Qani,sizday kelinim bo'lsa!? Otang /Onang/ga salom deb qo'y. Xo'p albatta aytib qo'yaman.*

Buyruq-istik, ya'ni biror ish-harakatga undash 3 xil shaklda ifodalanadi:

- a) implitsit (yashirin) buyruq-istik;
- b) bevosita buyruq-istik (biror holatga ishora qilish);
- v) ekspletsit buyruq-istik aniq ish-harakatga undovchi buyruq-istik.

Implitsit buyruq-istikda undashga qaratilgan gapning o'zi buyruq-istik ma'nosini anglatmaydi, lekin bu ma'noni sub'yeqtning o'zidan (gapidan) anglab olish mumkin. Masalan: bir odam ikkinchi odam bilan uchrashgisi kelmasa, uni ketishga majbur qiladigan gapni aytadi: "Kech bo'lib qoldi", "Soat 10 bo'lib qoldi" replikasining o'zi uni ketishga undaydi.

3-gapda buyruq-istik to'liq ifodalanadi.

Suhbatdoshlardan biri nimaningdir qayerda turganini aytadi, ikkinchisi yo o'sha narsani olib berishi kerak yoki olib ketishi lozim kabi har xil ma'nolarda tushunadi. Aniq nimaligi suhbatning boshlanish qismidan ma'lum bo'lib turadi.

Yuqoridagi misollarda buyruq-istik mazmuni darak gap shaklida ifodalangan.

**Minnatdorchilik bildirish:** *Rahmat. Marhamat. Tashakkur! Ko'p minnatdorman sizdan. Aytganingiz kelsin! Arzimaydi.*

**Quvonch:** *Boshim osmonga yetdi. Quvonchim bir olam.*

**Kechirim so'rash:** *Kechir (iing)! Meni /bizni/kechir/ing!/ Iltimos, kechir/ing!... uchun kechir/ing!/ Kechirasan/siz/, bilmabman! Bilmayman, uzr! Meni avf eting! Siz /sen/dan uzr so'rayman. Ming karra uzr! Tavba qildim, kechiring! Xafa qilgan bo'lsam, kechir/ing!/ Hechqisi yo'q! Nima ham derdim. Mayli. O'tgan ishga salovat! Qo'yavering! Zarari yo'q! Bo'pti, mayli. ...sam bo'ladimi? Bezovta qilganim uchun kechirasiz. Bezovta qilmadimmi, uzr?*

### **III SHO'BA. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH MASALALARI**

<b>Asilova G.</b> O'zbek tilini mutaxassislik tili sifatida o'qitishda loyihaviy faoliyatni modellashtirish.....	69
<b>Ahmedova G.</b> Muomala odobiga oid vaziyatlar va qolip gaplarning qo'llanilish xususiyatlari.....	71
<b>Khidoyatova D.</b> Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	80
<b>Turdiyeva K.</b> Tibbiy yo'nalishdagi rusiyabon talabalarga o'zbek tili darslarida tarqatma material bilan ishlash samaradorligi .....	83
<b>Kadirova X.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	86
<b>Bazarova D.</b> Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "O'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	93
<b>Iskandarova G.</b> O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	95
<b>Tursunova J.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda realiyalarning o'rni.....	100
<b>Shodmanov T.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	102
<b>Abdirashidova D.</b> Tibbiyot yo'nalishlari talabalari uchun o'zbek tili ta'limida tasviriy matnlarning ahamiyati .....	106
<b>Fayzullayeva N.</b> Boshlang'ich sinflarda o'zbek tili darslari orqali mustaqil fikrashga o'rgatish.....	110

### **IV SHO'BA. O'ZGA TILLI GURUHLARDA ADABIY O'QISH MUAMMOLARI**

<b>Musulmanova N.</b> Filologiya yo'nalishi rusiyabon guruhlarda o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari .....	113
<b>Isayeva Sh.</b> Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi.....	116
<b>Rasulova S.</b> G'arb adabiyotida sharqona asarlar talqini (V.Irving "Al-hamro" kitobining novellalari misolida).....	121
<b>Do'smuradova Y.</b> Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	128
<b>Turakulova O.</b> O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	131
<b>Davronov A.</b> O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	134
<b>Аликулова М.</b> Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	137
<b>Abilxayrova S.</b> O'zbek tili darslarida matnni o'qib tushunish ko'nikmasini interaktiv metodlar asosida o'rgatish (umumta'lim maktablari 7-sinflari misolida).	142